

UMUMXALQ TILDIDAN OLINGAN AXBOROT TEXNOLOGIYA TERMINLARI

Oydina Abdulboqiyeva

(+998932672604)

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti (abdulboqiyevaoydina@gmail.uz)
<https://doi.org/10.5281/zenodo.13335482>

Annotatsiya: Tildagi barcha so'zlar uning lug'at tarkibida mujassamlashgan bo'lib, tilning leksik boyligini tashkil etadi. Tilning boyligi uning lug'at tarkibini tashkil etuvchi so'zlarning miqdoriga, xilma-xilligiga bog'liqdir. Tillarda so'zlarning eskirib, muomaladan chiqib ketishi tabiiy bo'lganidek, tilga yangi so'zlarning kirib kelishi ham tabiiydir. Ushbu tadqiqotda axborot texnologiya sohasidagi o'z qatlamga oid terminlarni tahlil qildik.

Kalit so'zlar: termin, derevatsiya, terminlashish, terminologiya, intralingvistika, globallashuv, kompyuterlashtirish, adabiy til, umumxalq tili.

Biz bugun axborotlashgan jamiyatlar dunyosida, tobora rivojlanayotgan globallashuv jarayonlari, axborot-kommunikatsiya va internet texnologiyalari (AKT) hamda intellektual taraqqiyot hal qiluvchi rol o'yayotgan bir jamiyatda yashamoqdamiz. Respublikamizda davlat miqyosida ushbu sohalarga alohida ahamiyat berilib kelinmoqda.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng 1993-yilda ilk bor «Axborotlashtirish to'g'risida»gi qonun qabul qilindi va shu asosda barcha sohalarda, shu jumladan oliy ta'limda ham kompyuterlashtirish jarayonlariga keng yo'l ochildi va imkoniyatlar yaratildi. Hozirgi vaqtida mehnat unumdarligini o'stirish, mahsulot sifatini yaxshilash, bozorda mavjud bo'lgan turli xil talablarni qondirish va tezkor e'tiborga olish, ilm-fanning ishlab chiqarish tarmoqlarini, ayniqsa, elektronika, hisoblash texnikasi, telekommunikatsiya vositalarini ishlab chiqarishni rivojlantirish muammolarini keltirib chiqaradi. Shu kabi muammolar yechimining topilishi axborotlashtirish jarayonlarini tezlashtirishga sharoit yaratib, uning ulkan imkoniyatlaridan samarali foydalanishni, bozor munosabatlari iqtisodiyotining o'ta muhim mezoni bo'lgan raqobatchilikning ta'sirini kuchaytirishda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Axborotlashtirish zamonaviy dunyo taraqqiyotining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanib, jahon fan-teknikasining iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot yutuqlarini o'zida mujassamlashtiradi.

Jahon tilshunosligida AKT terminlarini tartibga solish ishlari bir til terminlari doirasida ham, ikki til terminlari doirasida ham olib borilgan, soha terminlari muayyan darajada tartibga solingan bo'lsa-da, milliy tilshunosliklarda AKT terminlarining lingvistik, leksikografik, semantik va tarjimaviy xususiyatlari aniqlanmagan, soha terminlarini tartibga solish mezonzlari ishlab chiqilmagan. D.Qadirova o'zining filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktorlik dissertatsiyasida ingliz va o'zbekcha AKT terminologiyasi va uning leksikografik xususiyatlari bo'yicha izlanish olib borgan. Bu doktorlik ishida AKT terminlarining leksikografik jihatlariga ko'proq e'tibor qaratilgan. AKT terminologiyasi bo'yicha A.Amirov, D.Atadjanov, A.Atadjanov va boshqa mualliflar jamoasi tomonidan izohli lug'at yaratilgan. 2023-yil ham O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan Axborot texnologiyalari atamalarining izohli lug'ati nashr qilindi. Jamiyatimiz taraqqiy etar ekan, nafaqat AKT sohasi, balki ko'plab sohalarda ham jadal o'zgarishlar bo'lmoqda, bu esa ularni doimiy tadqiq etib borishni taqazo qiladi.

Biz izlanishlarimiz davomida axborot texnologiyalarini yangi sohalardan biri ekanligi va tabiiyki, sohada chetdan kirib kelgan terminlarning salmog'i katta ekanligini hisobga olib, lug'atlardagi umumxalq tilida mavjud bo'lgan va ma'nosi maxsuslashtirish yo'li bilan terminlashgan axborot texnologiya terminlariga to'xtaldik.

Umumxalq tili ma'lum bir xalqning so'zlashuv tilidir. Umumxalq tilini xalq yaratadi. Uni xalq sekinlik bilan yaratib, boyitib boradi. Umumxalq tilining yuqori, sayqallashtirilgan shakli adabiy til sanaladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiya terminlari orasida ham umumxalq tilidan olingan terminlar mavjud. Umumadabiy til yordamida ifodalangan AKT terminlarini guruhlashga harakat qildik.

1. Umum adabiy leksikaning boshqa bo'lagida yuz bergan manoviy o'zgarish natijasida terminlar safiga o'tadi. Qoidaga ko'ra umum adabiy tildan terminologik tizimga olingan so'zlar muayyan ilmiy tushunchani ifodalash uchun xoslanadi. O'zbek tili texnik terminalogiyasi tizimida detallar mexanizmlar mashina qismlari hamda turli buyum asboblarni ifodalovchi kuz oyoq qadam barmoq qo'lтиq kabi so'zlar miqdori ko'p. Ilmiy matnlarda bu so'zlar o'zlarining birlamchi ya'ni denotativ ma'nosini yo'qotib tartibdagi ilmiy terminga aylanadi. AKT terminlarida ham bu holni kuzatish mumkin:

Langar – (ингл: anchor рус: якорь) HTML hujjatidagi, ularga murojatlar bo'yicha tezkor o'tish uchun hujjatda maxsus markerlarni o'rnatishga imkon beradigan, maxsus teg (). Odatda biror bo'limning yoki butunlay hujjatning boshiga o'rnatiladi.

Qumdon – (ингл: sandbox рус: песочница) Kompyuter xavfsizligida dasturlarning xavfsiz bajarilishi uchun mexanizm. Qumdon ko'pincha testlanmagan yoki notanish manbalardan olingan tekshirilmagan kodni yurgizish, hamda viruslarni yurgizish va aniqlash uchun ishlatiladi. Qumdon odatda mehmon dasturni bajarish uchun qattiq nazorat qilinadigan resurslar to'plamidan iborat – masalan, disk yoki xotiradagi joy. Tarmoqqa kirish, asosiy operatsion tizimga murojaat etish yoki kiritish qurilmalaridan axborotni o'qish odatda yo'qisman emulyatsiya qilinadi, yo'kuchli cheklangan bo'ladi. Qumdonlar virtualizatsiyaning misoli bo'la oladi. q: virtual mashina.

Teshik – (ингл: hole rus: дыра) xavf. Axborot xavfsizligi nuqtai nazaridan zaiflik. Q: zaiflik, tahdid.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida o'zining dastlabki ma'nosini yo'qotgan umumiste'mol so'z ma'nosidan metaforik ko'chim asosida maxsus terminlar yasalishi mumkin. AKT dagi quyidagilar mana shu guruhga kiradi: uya, oqim, sakrash, shovqin, cheklash, tugun, sukut, bo'lgich va boshqalar.

Quyida ulardan ayrimlarini izohini keltiramiz:

Cheklash – (ингл: limiting rus: ограничение) Kirish signalini nochiziqli qayta ishslash jarayoni bo'lib, signalning amplitudasi avtomatik ravishda pasayadi. Amplitudaviy cheklash impulsli xalaqitlar bilan kurashishning asosiy usullaridan biridir.

Shovqin – (ингл: noise rus: шум) 1. Telekom.Liniyada signallarning butunligiga halal beruvchi to'siq. Shovqin turli manbalardan chiqishi mumkin, shu jumladan, radioto'lqinlar, yaqinda joylashgan elektr simlari, chiroqlar va sifatsiz ulanishlar. Optik tolali kabellarning metal kabellarga nisbatan afzalligi shundaki, ular shovqin tasiriga kamroq moyildirlar. 2. Signalni yoki xabarni sof uzatishga to'sqinlik qiladigan hamma narsa. Masalan, onlayn

forumdagi shovqin, forum mavzusiga aloqasi bo'limgan ko'p sonli xabarlar mavjudligini bildiradi.

Oqim - (ingl : thread rus: поток) Teleanjuman ichida o'zaro murojaatlarga ega bo'lgan. Bir mavzugategishli jami maqolalar.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, terminologiya umumxalq tilining leksikasi negizida vujudga keladi, boyiydi. O'z navbatida, umumxalq tilining boyishi uchun xizmat qiladi. Terminologik leksika umumxalq tili leksikasining ajralmas qismi sifatida u bilan birga rivojlanadi, jamiyat va til taraqqiyotidagi barcha jarayonlarni boshdan kechiradi. Ma'lum bir fan yoki soha yuqori darajada taraqqiy etgandagina o'sha tilda maxsus terminologiya vujudga keladi.

References:

1. A.T. Kenjabayev, M.M.Ikramov, A.Sh. Allanazarov. Axborot-komminkatsiya texnologiyalari. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent – 2017
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2003-yil 11-dekabrdagi 561-II-sonli "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qarori
3. Hamidulla Dadaboyev. O'zbek tili terminologiyasi. Yoshlar nashriyot uyi. Toshkent-2019.
4. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug'ati. Qayta to'ldirilgan 2-nashri. Toshkent- 2010.

